

LEKSIK BIRLIKLARNING MAYDON ASOSIDA TIZIMLANISHI (SHAXS MAYDONI MISOLIDA)

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
2-bosqich talabasi

Matlabjonova Mehribon Mansurjonovna

Ilmiy rahbar:

Yusupova O.S

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksik birliklarning semantik maydon asosida tizimlanishi masalasi tahlil qilinadi. Xususan, shaxs maydoni doirasida inson tushunchasini ifodalovchi leksik vositalar, ularning o'zaro munosabati va ichki tuzilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maydon nazariyasining tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: semantik maydon, leksik birlik, shaxs maydoni, tizim, sema, leksik-semantik guruh.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini tizimli o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Til faqat alohida so'zlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan murakkab tizimdir [M.Mirtojiyev]. Shu nuqtai nazardan, leksik birliklarni semantik maydon asosida o'rganish tilning ichki tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Hozirda til mundarejasini maydon metodi bilan o'rganish eng samarali va qulay metodlardan biri bo'lib qoldi. Semantik maydon nazariyasiga ko'ra, bir xil mazmuniy yaqinlikka ega bo'lgan so'zlar yagona tizimga birlashadi. Ushbu maqolada ana shunday maydonlardan biri – shaxs maydoni misolida leksik birliklar tizimi tahlil qilinadi.

Muhokama Va Natijalar

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. XIX asrda til birliklari umumiylikiga M.Pokrovskiy tomonidan e'tibor qaratildi. XX asrning boshlariga kelib Vilgelm fon Gumboldning "tilning ichki formasi" haqidagi qarashlari negizida semantik maydon tushunchasi shakllandi. Ilk bora 1930-yillarda Germaniyada, 1970-yillarda AQSHda "semantik maydon" tushunchasi vujudga keldi [2]. Maydon tushunchasining nazariy talqini A. Trir, G.Upsen, V. Porsig ishlarida ko'zga tashlanadi. Maydon nazariyasining asosiy jihatlarini quyidagilardan

iborat:

- Tilning tizimliliği: obyektiv olamning bir butunligi inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va bu tilda ma'lum mazmuniy maydonlar shaklida namoyon bo'ladi. Til birliklari o'z-o'zidan emas, balki o'zaro paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlarda mavjud bo'ladi.

- Mazmuniy(semantik) maydonga egaligi: bu muayyan umumiy ma'no atrofida birlashgan so'zlar majmuasidir.

- Invariant va variant munosabati: maydon nazariyasida lisoniy birliklar abstrakt sistema elementi (invariant) va uning nutqda namoyon bo'lishi (variant) sifatida farqlanadi. Masalan, leksema – invariant bo'lsa, uning ma'nolari variantlardir.

Maydon turlari:

1. Leksik-semantik maydonlar: so'zlarning ma'noviy yaqinligi asosida shakllanadi.

2. Funksional-semantik maydonlar: turli sath birliklarining (leksik, grammatik) bir xil vazifani bajarish uchun birlashuvi.

3. Turkumlararo leksik maydonlar: turli so'z turkumlariga kiruvchi, ammo mazmunan bog'liq so'zlar (masalan: yurmoq, tez yurmoq).

Y.N. Karaulov maydonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

1. Maydon elementlarining o'zaro aloqasi: bunda elementlarning mazmuniy o'xshashligi, mazmuniy munosabatdorligi (semantik korrelyatsiyasi) obyektida bo'lgan munosabati nazarda tutiladi.

2. Maydon elementlarining bir-biridan farqli asosida belgilanishi, ba'zan bu xususiyat o'zaro almashinish sifatida ham ta'riflanadi.

3. Mazmuniy maydonlarning mustaqilligi: yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqadi.

4. Turli tillarda maydon xususiyatlarining o'ziga xosligi (tarixiy tarkibi, milliy jihatlari).

T. Mirzaqulov funksional-semantik maydonlarning ayrim xususiyatlariga doir fikrlarga to'xtaladi. M. Abduvaliyev ham maydon tushunchasini bir muncha yoritgan.

Endi semantik maydon tushunchasiga to'xtalamiz:

Semantik maydon – bu ma'lum bir umumiy mazmuniy belgi (sema) asosida birlashgan leksik birliklar yig'indisi. Boshqacha aytganda, ma'nosi o'zaro yaqin yoki bir mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar bir semantik maydonni tashkil etadi. Tilshunoslikda bu tushuncha tilning tizimli xarakterini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir so'z alohida emas, balki boshqa so'zlar bilan ma'no jihatdan bog'langan holda mavjud bo'ladi. Masalan, "inson" tushunchasi bilan bog'liq barcha so'zlar shaxs maydonini tashkil etadi. Bu maydon ichida so'zlar turli kichik guruhlariga bo'linadi va ular o'zaro

ierarxik hamda paradigmatic munosabatda bo'ladi.

Shaxs maydoni insonni turli jihatdan ifodalovchi leksik birliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu maydonni quyidagi kichik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Biologik va umumiy nomlar – odam, inson, kishi, banda. Bu birliklar shaxsni umumiy ma'noda ifodalaydi va maydonning markaziy qismini tashkil etadi.

2. Yosh va jinsga oid birliklar – bola, o'smir, yigit, qiz, erkak, ayol, chol, kampir. Bu guruh insonning biologik va ijtimoiy belgilarini aks ettiradi.

3. Kasb va faoliyat bilan bog'liq birliklar – o'qituvchi, shifokor, dehqon, talaba, haydovchi. Bu so'zlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy va qarindoshlik munosabatlari – ota, ona, aka, opa, do'st, qo'shni. Bu birliklar shaxslararo aloqalarni ifodalaydi.

5. Xarakter va sifat bildiruvchi birliklar – mehribon, halol, dangasa, jasur, aqlli. Bu guruh shaxsning ichki xususiyatlarini ochib beradi.

Shaxs maydonining mavjudligi va uning tizimli xarakteri nafaqat nazariy qarashlar, balki amaliy lug'at materiallari orqali ham isbotlanadi. Xususan, tezaurus (ma'noviy guruhlash asosidagi) lug'atlar leksik birliklarning semantik maydonlarga birlashishini yaqqol ko'rsatadi.

Tezaurus tipidagi lug'atlarda so'zlar alifbo tartibida emas, balki ma'no yaqinligi asosida joylashtiriladi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, til egasi ongida ham so'zlar tartibsiz emas, balki muayyan semantik tizim asosida saqlanadi.

Fikrimizcha, shaxs maydonining ichki tuzilishini tushunishda faqat o'xshashlik emas, balki farqlanish ham muhim dalildir. Masalan: "inson", "odam", "kishi" – yaqin ma'noli, lekin uslubiy va qo'llanish jihatdan farq qiladi; "bola" va "chol" – bir maydonga kiradi, lekin yosh semasi orqali ajraladi. Demak, semantik maydon ichida birliklar nafaqat birlashadi, balki o'zaro differensial belgilar orqali farqlanadi.

Tezaurus lug'atlar asosida kuzatilishicha, shaxs maydonida ham markaz va periferiya aniq ko'rinadi:

Markaz: inson, odam, kishi;

Periferiya: kasb nomlari, xarakter sifatlari, shevaga xos birliklar.

Bu esa fikrimizni tasdiqlaydi, ya'ni semantik maydon qat'iy chegaraga ega emas, balki kengayib boruvchi ochiq tizimdir. Endi esa klaster usulida shaxs tushunchasini semantik maydonga joylashtiramiz:

Xulosa

Leksik birliklarni semantik maydon asosida o'rganish tilning tizimli xarakterini ochib beradi. Shaxs maydoni esa inson bilan bog'liq barcha leksik birliklarni yagona tizimda ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxs maydoni ichida so'zlar o'zaro murakkab semantik

munosabatlar orqali bog‘langan bo‘lib, bu tilning ichki strukturaviy yaxlitligini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beekman John, John C. Callow, and Michael F. Kopesec (1981). The Semantic Structure of Written Communication. Dallas: Summer Institute of Linguistics.
2. Brigitte Nerlich, David D. Clarke. Semantic fields and frames: Historical explorations of the interface between language, action, and cognition. Journal of Pragmatics – 2000, pages 125-150.
3. Abdullayeva, N. (2023, April). Tezaurus tushunchasi, etimologiyasi, va til o‘rganishda qo‘llanilishi. In Conference on Applied and Practical Sciences (pp. 117-119)
5. Iskandarova Sh. Leksikani maydon asosida o‘rganish muammolari. – Toshkent: Fan, 1998.
6. Karaulov Yu. N. Общая и русская идеография (Umumiy va rus ideografiyasi). – Moskva: Nauka, 1976.